

ABDULLA SHER SHE'RLARIDA SHOIR SHAXSI MASALASI

Xamroyeva Dilnoza Jumanazarovna

Buxoro davlat universiteti tayanch doktoranti

d.j.xamroyeva@buxdu.uz

Annotatsiya: Yaratilgan har bir ijod namunasi o‘z muallifining tabiatini aks ettirgan bo‘ladi. Ammo shoir xarakteri va biografik she’rlar orasida sezilarli farq bor. Ushbu maqolada Abdulla Sherning ba’zi she’rlari tahlil qilingan holda shoir xarakteriga xos ba’zi sifatlar olib berilgan. Shoirning so‘z qo‘llash mahorati, uslubi kabi masalalar maqolada o‘z aksi ifodasini topgan.

Kalit so‘zlar: shoir xarakteri, g‘azal, sarbast, she’riyat, xarakter.

Abdulla Sher ijodi bilan tanishar ekanmiz uning ruhiyat olami, qarashlari oz bo‘lsa-da, kitobxon qalbiga seziladi. Shoir xalqi haqgo‘y, haqiqatgo‘y bo‘ladi. Ular hech bir qolipga sig‘maydi. Dilidagi gapni baralla aytadi va umrini halollik va xalq xizmatiga bag‘ishlaydi. Abdulla Sher ham shunday insonlardan biridir.

Shu bilan bir qatorda shoirning “Qadimgi kuy” she’riy to‘plamidan o‘rin olgan “Biling” radifli g‘azalini ham xuddi shunday tahlil qilish mumkin:

Garchi Abdullodir ismim, har so‘zim isyon biling,
Gar sukut hokim tilimda, jimligim doston biling.

Kun tig‘i toshga urilsa, sachragay o‘t har taraf,
Ishqim ohi xuddi shunday o‘t sochur har yon biling¹.

Garchi g‘azal an’anaviy ishqiy mavzuda yozilgan bo‘lsa-da, lirik qahramon ijodkorning o‘zi. Matla’da shoir o‘zini tanishtirgandek bo‘lib, ismining Abdullo ekanligini aytadi. Eng e’tiborlisi, uning har so‘zi isyon. Xo‘sish shoir nega isyon qiladi? Ushbu she’r 1969-yilda yaratilgan bo‘lib, o‘z-o‘zidan ma’lumki, ushbu davr sobiq sho‘ro tuzumiga to‘g‘ri keladi. Balki bu o‘rnatilgan tuzumdan norozidir, balki adolat istab isyon ko‘tarayotgandir. Haqiqatparast shoir sukut saqlagan vaqtida jimligi dostonga tengligini ta’kidlaydi.

Ikkinchchi bayt umuman boshqacha kayfiyatda. Shoir tong otish hodisasini go‘zal o‘xshatishlarda beradi. Shunda ham kun yoyilish hodisasini ijobiy so‘zlar orqali ifodalamaydi, ya’ni tig‘ toshga urilsa, albatta, undan uchqun sachraydi. Go‘yo quyoshning tig‘i toshlarga urilib keyin tong otayotgandek. Shu orqali ham shoir

¹ Абдулла Шер. Қадимги куй. – Т.:Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.130.

ichidagi notinchlikni sezish mumkin. Buni yanada yaxshiroq anglash uchun quyidagi she'rga murojaat qilamiz:

O'jar ruhim, jangari ruhim,
Bir zumgina o'yga tolsang-chi;
To'fonlarni sevguvchi Nuhim,
Sukunatga quloq solsang-chi!

Tingla, uning baland- pastida
Ovozini izlaydi so'zlar.
Shu so' zlarni aytish qasdida
Ovoz bo'lib yashaylik bizlar².

Va nihoyat, shoir o'zining o'jar, jangari ruhi borligini tan oladi. Bir lahza o'yga tolishga, hayotni mushohada qilishga chorlaydi. Shoir o'zining sarkash ruhini to'fonlarni sevguvchi Nuhga qiyoslaydi. Nuh alayhissalom qissasi Qur'oni Karimdan o'rin olgan. "Endi qachon Bizning farmonimiz kelib, yerdan favvoralar otilgan vaqtida (Nuhga) dedik: " U kemaga har (jonivordan) bir juftdan va ahli oilangni chiqargin. Lekin qaysi kimsalar xususida Bizning so'zimiz o'tgan bo'lsa, (ularni tark qilgin) yana imon keltirgan kishilarning barchasini (kemaga chiqargin) (Hud, 25-48)³

Shoir sukunatga quloq tutishga chorlaydi. Oxirgi misra ham xuddi shunday chorlov ruhida bitilgan.

Abdulla Sherning "Sarbast qo'shiqlar" to'plamidan o'rin olgan "Men domlaman" (Ta'magir domlalarga raddiya) she'ri ham o'zgacha ahamiyatga molik:

Men domlaman,
Ham olimman, ham muallimman.
Dars beraman, kitoblar yozaman,
Muallifman, hammuallifman,
Qog'ozni semirtirib, o'zim ozaman,
Qancha qiyin bo'lsa ham, lekin tozaman⁴.

Shoirning sarbast vaznda yozilga ushbu she'ri shoir xarakterini yanada yorqinroq ko'rsatib beradi. Ushbu she'r halollikka madhiyadek yozilgani bilan ahamiyatlidir. Uning "Qog'ozni semirtirib, o'zim ozaman" misralari orqali uni nafaqat ijodkor qiyofasida, balki chin inson sifatida ham yorqinroq tasavvur etamiz. Inson qachon ozadi? Qachonki, o'z ishiga sidqi dildan kirishsa, boshlayotgan ilmini sevsqa, o'zgalar manfaatini o'z manfaatidan ustun qo'yib harakat qilsagina u insoniylik

² Абдулла Шер. Қадимги күй. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.132.

¹³ Alauddin Mansur. Qur'oni Karim. – Т.: Sharq, 1992. – В. 210.

⁴ Абдулла Шер. Ёнаётган йўл. – Т.: Фафур Гулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.20.

rutbasidan o‘rin oladi. Xuddi shunday Abdulla Sher ham qog‘ozni semirtirgan sari ozadi. Ilm yo‘lida beminnat harakat qiladi. Bundan tashqari, o‘zbek xalqining azaldan o‘zligini ko‘rsatgan tozalik, halollik, odamiylik kabi ezgu fazilatlarni targ‘ib etadi. Talabalarga, nafaqat talabalarga, balki butun insoniyatga baralla insoniylikdan, axloqshunoslikdan saboq bergandek bo‘ladi.

Abdulla Sher haqiqatda haqso‘z, adolatparvar, serfayz shoir, dono olim, chin insondir. Haq so‘zni har joyda, har vaqtida aytishga uncha-bunchaning jur’ati yetmaydi aslida. Shoirning quyidagi g‘azali 1972-yilda yozilgani bilan e’tiborni tortadi. G‘azal janrida yozilgan ushbu namunanining faqat matla’ va maqta’sini keltirib o‘tish yetarlidir:

Kecha yo‘l boshida qolgan maqsadimni esladim,
Misli sarg‘aygan qog‘ozdin dastxatimni esladim.
Shunday, Abdullo, bugun men birma-bir eslab keyin
Sertikan asrimga bo‘lgan hurmatimni esladim⁵!

Lirik qahramon ko‘zlagan maqsad ora yo‘lda qolib ketadi. Sarg‘aygan qog‘ozga bitilgan dastxatini esga oladi. “Men tikanni ham ko‘rarman gulga boqsam gar bugun” misralarini ham o‘z ma’noda, ham ko‘chma ma’noda tahlil qilish mumkin. Ya’ni gulda, xususan, atirgulda tikan bor. Shoir gulga qarashi bilan tikanga ham ko‘zi tushaveradi. Yaxshi insonlar orasida g‘araz niyatli, hasadgo‘y kimsalar borligini eslatса, yana har bir odamda ezgu fazilatlar ham , illatlar ham yashayotganini uqtirayotgandek bo‘ladi. Shoir ko‘zlagan maqsad nihoyat maqta’da oydinkashdi. Shoir yashagan asr sertikan. Biroq u shu asrga hurmat bajo keltirishga majbur.

Foydalilanigan adabiyotlar:

1. Alauddin Mansur. Qur’oni Karim. – Т.: Sharq, 1992. – В. 210.
2. Абдулла Шер. Ёнаётган йўл. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.20.
3. Абдулла Шер. Қадимги куй. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.132.

⁵ Абдулла Шер. Қадимги куй. – Т.: Faafur Fулом номидаги Адабиёт ва санъат, 1987. – Б.50.